



Komiljon Mirzayev

Qarshi davlat texnika universiteti
“O‘zbekiston tarixi va ijtimoiy fanlar” kafedrasini
katta o‘qituvchisi E-mail: komil_mir@list.ru

O‘RTA OSIYO ARXEOLOGIYA KAFEDRASI: O‘QUV JARAYONI, DALA TADQIQOT USULLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15729574>

Annotatsiya. Ushbu maqolada taniqli arxeolog Mixail Yevgeniyevich Masson tomonidan asos solingan, O‘rta Osiyodagi birinchi ixtisoslashgan arxeologiya maktabining ilmiy faoliyati haqida so‘z boradi. Ilmiy maqola O‘rta Osiyo hududida arxeologiya fanining rivojlanish tarixi va uning zamonaviy holatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. O‘rta Osiyo arxeologiyasi kafedrasining shakllanishi va rivojlanishi masalalari, shuningdek, kafedrada o‘quv jarayonlari va tadqiqot usullari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlari: Mixail Yevgeniyevich Masson, V.N.Pilipko, TIAT, YUTAKE, **O‘rta Osiyo arxeologiyasi** kafedra, arxeologiya, amaliyot, tadqiqot, ekspeditsiya, qazishmalar, qadimiy shaharlar.

Kirish. XX asrning 30-yillarida O'rta Osiyo hududida arxeologik tadqiqotlarning jadal rivojlanishi mutaxassis kadrlar tayyorlash zaruratini keltirib chiqardi. Ushbu ehtiyojni qondirish maqsadida 1940-yilda O'rta Osiyo Davlat Universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy Universiteti, O'zMU) tarix fakulteti qoshida O'rta Osiyo arxeologiyasi kafedrasini tashkil etildi. Kafedra asoschisi Mixail Yevgeniyevich Masson rahbarligida ishlab chiqilgan uslubiy yondashuvlar va o'quv dasturlari mintaqaviy va xalqaro miqyosda arxeologiya fanining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. 2025-yil 1-aprelda kafedra tashkil etilganiga 85 yil to'ldi, bu esa uning faoliyatini tahlil qilish va uning ilmiy merosini baholash uchun muhim imkoniyat yaratadi. [1:62 b.] Bugungi kunda kafedrada yetishib chiqqan olimlarning hayoti va faoliyati haqida tizimlashmagan ma'lumotlar ko'p bo'lsa-da, matab faoliyati haqida chuqur olib borilgan tadqiqotlarni arxiv xujjalari va juda kam sonli tadqiqotchilar ijodlarida uchratishimiz mumkin.

Tadqiqotning maqsadi – kafedraning tashkiliy tuzilishi, o'quv-uslubiy faoliyati va ilmiy tadqiqot yo'nalishlarini tahlil qilish orqali uning O'rta Osiyo arxeologiyasidagi o'rnini aniqlashdan iborat

Asosiy qism. Kafedra tashkil topgan kundan boshlab O'rta Osiyo va qo'shni mamlakatlarning o'tmish moddiy madaniyatini o'rganuvchi arxeolog va tarixchilarni tayyorlash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Talabalar bu jarayonga o'qishning birinchi yilidan boshlab ilmiy-tadqiqot arxeologiya to'garagi orqali jalb etilgan. 1941-yildayoq ilmiy matab asoschisi tomonidan talabalarga ilmiy ish olib borishni osonlashtiruvchi maxsus yo'riqnomalar yosh bo'lajak mutaxassislarga o'rgatib borilgan. [2:5 b.] Maxsus dasturlarning ishlab chiqilishi, kadrlarning tizimli tayyorlanishi, talabalar bilan individual ishslashga katta e'tibor qaratilishi kadrlar tayyorlashda katta samara berdi. Biroq, bu oddiy arxeologlar tayyorlash emas edi. Kafedra ishida o'ziga xos metodik usullar va tadqiqot yo'nalishlari namoyon bo'ldi. Ularni, birinchi navbatda, matab asoschisi professor

M.Ye. Masson ishlab chiqqan bo‘lib, keyinchalik uning hamkasbleri va kafedra bitiruvchilari tomonidan ijodiy rivojlantirildi.

Arxeologik ixtisoslashuvning dastlabki tajribalari arxeologiya kafedrasini tashkil etishidan oldin amalga oshirilgan. 1939-yil oxirida V. Yarotskiy va tarix fakulteti dekani F.I. Pozichanyuk O‘rta Osiyo arxeologiyasi bo‘yicha birinchi maxsus kursni joriy etishga yordam berdilar. Bundan tashqari, shu yilda M.E. Masson tomonidan O‘rta Osiyo shaharlarining tarixiy topografiyasi bo‘yicha arxeologik ma’lumotlar va yozma manbalar o‘z ichida jamlagan maxsus kurs o‘qilgan. Arxeologiya kafedrasini tashkil etilgach, tarix fakultetining o‘quv rejasini qayta ko‘rib chiqildi va unga O‘zbekiston SSR Oliy ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan O‘rta Osiyo arxeologiyasi bo‘yicha maxsus kurslar kiritildi. O‘rta Osiyo arxeologiyasi bo‘yicha ixtisoslik esa O‘rta Osiyo Davlat universiteti fanlar ro‘yxatiga kiritilgan. [3: 70 b.]

Arxeologiya kafedrasida ixtisoslashgan talabalar o‘quv rejasidagi umumiy majburiy fanlar bilan bir qatorda quyidagi maxsus kurslarni o‘qitilgan:

I kursda: 1) Arxeologiya asoslari; 2) Arxeologik materialni qayta ishslash metodikasi; 3) Kurs ishi; 4) Tarixchilar bilan arxeologik amaliyat.

II kursda: 1) Dala arxeologik tadqiqotlari metodikasi; 2) Arab tili (ilgari fors tili bo‘lgan).

III kursda: 1) Sharq san’ati; 2) Arab tili; 3) Arxeologik tadqiqotlarning zamonaviy usullari; 4) Arxeologik dala amaliyoti; 5) Buxoro shahridagi arxeologiya-topografiya va arxitektura o‘quv amaliyoti; 6) Kurs ishi.

IV kursda: 1) O‘rta Osiyoning IX asrgacha bo‘lgan kulolchilik ishlab chiqarishi; 2) O‘rta Osiyo arxeologiyasi; 3) Arxitektura yodgorliklari; 4) O‘rta Osiyo xalqlari antropologiyasi; 5) Diplom oldi dala arxeologik amaliyat.

1970-yilgacha arxeologiya kafedrasida ixtisoslashgan talabalarga diplomda "mutaxassislik" ustunida "tarixchi-arxeolog" deb yozilgan. O‘rta Osiyo arxeologiyasi kafedrasini tashkil etilgandan boshlab, to‘plangan bilimlar asosida professor-o‘qituvchilar tomonidan turli yillarda talabalar uchun quyidagi maxsus kurslar

tayyorlangan va o‘qitilgan: 1) O‘rta Osiyo numizmatikasi. 2) O‘rta Osiyo arxeologiyasiga kirish. 3) O‘rta Osiyo shaharlarining (Toshkent, Buxoro, Samarqand) tarixiy topografiyasi, shuningdek, bir kurs uchun "Termiz va Marvning tarixiy topografiyasi". 4) Arxeologik materiallarga ishlov berish uslubi va dala tadqiqotlari tarixi. 5) O‘rta Osiyo me’morchiligi tarixi. 6) Sharq san’ati. 7) Eron va Afg‘oniston san’ati (Sharq uchun). 8) Toshkentning me’moriy yodgorliklari mavzusida kurslar o‘qitilgan. Kafedraning ilmiy mavzusi bilan bog‘liq holda O‘rta Osiyo hududida joylashgan tarixiy arxeologik yodgorliklari bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borildi.

Dastlabki vaqtarda maxsus kurslarni o‘qitish uchun turli yillarda respublikaning yetakchi olimlari taklif etilgan: V. V. Struve, K. V. Trever, I. Yu. Krachkovskiy, A. Yu. Yakubovskiy N.G. Malitskiy, L.V. Oshanin, A.A. Semenov, I.P. Petrushevskiy, S.N.Zamyatin, V.P.Smirnov, [4:1 b.] G. A. Pugachenkova va boshqa bir qancha olimlar talaba-yoshlarga o‘z mutaxassisliklari doirasida bilim va ko‘nikmalar berishgan. Kafedra tashkil etilishi bilan u o‘z faoliyatida o‘quv jarayonini ilmiy tadqiqotlar bilan uzviy ravishda bog‘ladi. N.G.Mallitskiy O‘rta Osyoning tarixiy geografiyasi va etnografiyasi bo‘yicha ma’ruzalar o‘qigan. A.A.Semenov - "O‘rta Osiyo paleografiyasi", shuningdek "O‘rta Osiyo xronologiyasi va metrologiyasi"; A.S. Morozova uzoq yillar davomida "O‘rta Osyoning etnografik badiiy hunarmandchiligi" kursini olib borgan, professor Yu.A. Skvorsov - "To‘rtlamchi geologiya", L.V. Oshanin - "O‘rta Osiyo xalqlari antropoloyiyasi". 60-yillarda fors tili o‘rniga arab tili kiritildi; professor A.M.Matveev "Xalifat tarixi" kursini o‘qigan, M.I.Molokotova - "Uzoq Sharq mamlakatlari san’ati" kursini Toshkent chinni zavodiga ekskursiya bilan o‘tkazgan. Arxeologiya ixtisosligida talabalarning besh yillik o‘qish davrida dala amaliyotini o‘tkazish muhim o‘rin egallaydi.

O‘tgan asrning 50-yillaridan boshlab kafedra O‘rta Osiyo madaniyati tarixini o‘rganishga ulkan hissa qo‘shti. Ayniqsa, kafedra tomonidan Turkmanistonda YUTAKE yo‘nalishi bo‘yicha olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, Niso va Eski Marv qadimiy shaharlaridagi kashfiyotlar jahon ahamiyatiga ega bo‘ldi. Kafedraning O‘rta

Osiyoning qadimiy shaharlari - Marv, Samarqand, Toshkent, Buxoro, Qarshi, Shahrisabzda olib borgan ilmiy izlanishlari qadimiy shaharlarni o'rganishda ulkan hissa bo'lib qo'shildi. [5:64-69 b.]. Kafedra olib borayotgan ilmiy tadqiqotlar doirasi keng qamrovli bo'lib, unga o'rta asr shaharlarining tarixiy topografiyasi va me'morchiligi, qadimgi savdo yo'llari va tarixiy-madaniy aloqalar muammolari, hunarmandchilik ishlab chiqarish tarixi va tovar-pul munosabatlari, kon-qazilma boyliklari, epigrafika, san'atshunoslik, moddiy va ma'naviy madaniyat tarixi masalalari kiradi.

Mixail Yevgenevich rahbarlik qilgan kafedrada talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ko'p ishlar qilindi. Majburiy arxeologik amaliyot har yili o'tkazilib borilgan. Kafedra tarbiyalanuvchisi V.N.Pilipko o'z xotiralarida shunday eslaydi: "Sentyabr oyida kafedra deyarli to'liq tarkibda YUTAKEda ishlash uchun Turkmanistonga jo'nab ketdi. Ushbu tadbirning ortida turgan ulkan tashkilotchilik ishini faqat ko'p yillar o'tgach, "o'quv jarayonida" ekspeditsiyaga bir nechta talabalarni jalg qilishga uringanimda to'liq baholadim. O'rta Osiyoning 1950-60-yillardagi o'ziga xos xususiyatlari bilan tanish bo'lganlarga quyidagi qo'shimcha ma'lumotlar ko'p narsani aytib beradi: arxeolog talabalar paxta yig'im-terimi kompaniyasining eng qizg'in davrida va o'z respublikasidan tashqarida amaliyot o'tagan. Kurs va bitiruv ishlarini yaratishda talabalar asosan eng yangi arxeologik qazishmalarda ularning bevosita ishtirokida olingan materiallar. Talabalik yillardayloq kasbiy o'sishga sog'lom intilish tarbiyalangan - o'qishdagi va dala faoliyatidagi muvaffaqiyatlarga qarab talabalar "maydonchalar boshliqlari," qazishmalar boshliqlari etib tayinlangan. YUTAKEdagi dala lagerida umumiyl stol atrofida hamma qat'iy tartib bo'yicha o'tirar va yoshlari ulg'aygan sari tabiiy ravishda stolning to'rida o'tirgan M. Ye. Massonga yaqinlashardilar. [6:121 b.]

Mixail Yevgenyevich rahbarlik qilgan kafedrada talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Majburiy arxeologik amaliyot har yili o'tkazilib borilgan. Kafedra tarbiyalanuvchisi Pilipko o'z

xotiralarida shunday eslaydi: "Sentabr oyida kafedraning deyarli to‘liq tarkibi YUTAKEda ishlash uchun Turkmanistonga yo‘l oldi. Ushbu tadbirning ortida turgan ulkan tashkiliy ishlarni ko‘p yillar o‘tgach, "o‘quv jarayonida" bir nechta talabani ekspeditsiyaga jalb etishga harakat qilingandagina to‘liq baholadim." O‘rta Osiyoning 1950-60-yillardagi o‘ziga xos xususiyatlaridan xabardor bo‘lganlarga quyidagi qo‘sishma ma’lumotlar ko‘p narsani anglatadi: arxeolog-talabalar paxta yig‘im-terimi avj olgan paytda o‘z respublikasidan tashqarida ham amaliyot o‘tagan. Talabalik yillaridan professional o‘sishga sog‘lom intilish tarbiyalandi - o‘quv va dala faoliyatidagi muvaffaqiyatlariga qarab talabalar "maydoncha boshlig‘i", "qazishma boshlig‘i" etib tayinlandi. YUTAKEning dala lagerida umumiy stol atrofida hamma qat’iy tartibda o‘tirar, yoshlari ulg‘aygan sari M. Ye. Massonga yaqinlashib borishardi.

Maxsus dasturlarning ishlab chiqilishi, kadrlarning tizimli tayyorlanishi, talabalar bilan individual ishlashga katta e’tibor qaratilishi kadrlar tayyorlashda katta samara bergen. Ammo bu oddiy arxeologlar tayyorlash emas edi. Kafedra ishida o‘ziga xos metodik usullar va tadqiqot yo‘nalishlari namoyon bo‘ldi. Ularni, birinchi navbatda, maktab asoschisi professor M.Ye. Masson ishlab chiqqan bo‘lib, keyinchalik uning hamkasblari va kafedra bitiruvchilari tomonidan ijodiy rivojlantirildi.

O‘rta Osiyoda ixtisoslashgan birinchi arxeologiya kafedrasи o‘ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida dala va kameral tadqiqotlar metodikasi usullariga katta e’tibor qaratishini namoyish etadi. Ushbu kafedra tomonidan talabalarga O‘rta Osiyo hududida eng qadimgi davrdan o‘rta asrlarga qadar yashagan xalqlarning o‘tmishini o‘rganishda ijodiy rivojlantirish usullari o‘rgatilgan.

Dala tadqiqotlari metodlarida yosh olimlarga tadqiqot jarayoni quyidagi bosqichlardan boshlanishi kafedra tomonidan ta’lim sifatida yetkazilib kelingan: avval tadqiqot vazifasi aniqlanadi, unga ko‘ra obyekt tanlanadi, uning geografik va arxeologik joylashuvi belgilab olinadi, keyin ko‘z bilan sinchkovlik bilan ko‘rib chiqilib vizual syomka amalga oshiriladi va qazish uchun mos joy tanlanadi. Ish boshlanishidan oldin obyekt nivelirlanadi, profili chiziladi, kvadratlarga bo‘linadi va

ularga harfiy-raqamli belgilar beriladi, bu ham kafedra tomonidan talabalarga o‘rgatilgan muhim qadamlardir.

Ochish ishlari kvadrat-yarus tizimi asosida olib boriladi, bu kafedraning o‘quv dasturida muhim o‘rin tutadi: yuzasi kvadratlar (2×2 m) va chuqurligi yaruslar (har biri 50 sm) bo‘yicha, yaruslar reper nuqtadan boshlab hisoblanadi. Grafik ishlar 1:50 yoki 1:100 masshtabda, shurflarning yoyilmasi esa 1:20 yoki 1:15 masshtabda bajariladi, chizmalarda chiziqli masshtab ko‘rsatiladi. Kvadrat-yarusli ochishda kvadratlar bo‘yicha ro‘yxat va kundalik yuritiladi, bu ham kafedra tomonidan talabalarga o‘rgatilgan tizimli yondashuvdir. Qazish ishlari yakunlangach, obyektning rejasi olinadi, kesimlar tayyorланади, tadqiqot natijalari hisobot sifatida yoziladi va shifrlangan materiallar kameral ishlov berish uchun kafedraga yuborish uchun qadoqlanadi. [7:72 b.]

Uslubiy jihatdan madaniy qatlamlarning xarakteri va tarkibini aniqlash, ularning nisbiy sanasi belgilash uchun stratigrafik o‘rganishlar o‘tkaziladi, bu jarayon kafedra tomonidan talabalarga chuqur o‘rgatilgan. Madaniy qatlam ustidagi kuzatishlar qazishning eng murakkab qismi hisoblanadi, chunki qazish ishlari vayron qiluvchi xarakterga ega bo‘lib, o‘tkazib yuborilgan tafsilotlar abadiy yo‘qoladi. Talabalar bu jihatni yaxshi o‘zlashtirib, dala tadqiqotlari metodikasini mukammal egallash uchun harakat qilishgan. Bitiruvchilar kafedra tomonidan o‘rgatilgan dala arxeologiyasi ko‘nikmalarini mustaqil amaliy faoliyatda qo‘llaydilar. Diplom amaliyoti davrida



kafedra tomonidan amaliy faoliyat usullari to‘liq belgilab beriladi. "Masson maktabi" arxeologlari tomonidan dala tadqiqotlari metodikasini yaxshi egallanganligi ularning nashr etilgan ishlari va monografiyalari bilan tasdiqlanadi, bu ham kafedraning o‘quv samaradorligini ko‘rsatadi.

Kafedraga talabalar arxeologik materiallarga ishlov berish metodikasini o‘rganadilar, sopol va tosh buyumlarni tiklash va konservatsiyalash usullarini o‘zlashtiradilar (Dalvarzintepa, Afrosiyob va boshqalar), antropologik materiallar bilan ishlashni o‘rganadilar. Talabalar majburiy tartibda arxeologiya yodgorliklarini pasportlashtirish qoidalari bilan tanishadilar, arxeologiya xaritasini tuzishda va yodgorliklar to‘plami bo‘yicha materiallar yig‘ishda marshrutli sayohatlarda ishtirok etadilar. Barcha talabalar tarix va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunlar bilan tanishtirilib borilgan. Kafedraning a’zolari va talabalar mahalliy aholi o‘rtasida ilmiy-targ‘ibot ishlarini olib boradilar, arxeologiya yodgorliklarini muhofaza qilish bo‘yicha suhbatlar o‘tkazadilar, qazish maydonchalariga ekskursiyalar uyushtiradilar, tegishli tushuntirishlar beradilar, ekspeditsiya ishlarining natijalari to‘g‘risida ma’ruzalar qiladilar, arxeologik topilmalarni namoyish etadilar. Kafedradan olingan dala arxeologiyasi bo‘yicha ko‘nikmalar bitiruvchilarning kelajakdagi ishida samarali natija beradi.

Kadrlar tayyorlashdagi muvaffaqiyatlarni shundan ham bilsa bo‘ladiki, kafedra va TIAT qo‘lida shakllanib chiqqan arxeologlari Moskva, Leningrad va barcha O‘rta Osiyo respublikalaridagi markazlarining turli tashkilotlarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelishgan ayni vaqtda ham.

Xulosa. O‘rta Osiyo arxeologiyasi kafedrasи, Mixail Yevgeniyevich Masson rahbarligida, mintaqada arxeologik tadqiqotlarning metodologik asoslarini ishlab chiqishda muhim rol o‘ynadi. Kafedra tashkil etilganidan boshlab (1940-yil) o‘z faoliyatini ilmiy tadqiqotlar va ta’lim jarayonlarini uyg‘unlashtirishga qaratdi, bu esa uning O‘rta Osiyo arxeologiyasining yetakchi markazlaridan biriga aylanishiga zamin yaratdi. O‘quv dasturi, nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan

muvozanatlashtirgan holda ishlab chiqildi. Bu yondashuv talabalarga “kvadrat-yarus” tizimi, stratigrafik tahlil va moddiy topilmalarni qayta ishlash kabi muhim ko‘nikmalarni egallash imkonini berdi, bu esa ularning real dalaviy tadqiqot sharoitlarida muvaffaqiyatlari ishlashiga xizmat qildi.

Kafedraning ilmiy faoliyati, xususan, YUTAKE, KATE loyihasi doirasida olib borilgan qazishmalar, O‘rtta Osiyo moddiy madaniyatini o‘rganishda global miqyosda e’tirof etildi. Ushbu loyihalar nafaqat qadimiy shaharlarning tarixiy topografiyasini aniqlashga yordam berdi, balki numizmatika va arxitektura yodgorliklarini tahlil qilish orqali mintaqa tarixini kengroq kontekstda tushunishga hissa qo‘shti. Kafedraning 1940–2025-yillarga 200 dan ortiq mutaxassis, shu jumladan fan nomzodlari, fan doktori va 6 akademikni tayyorlaganligi uning kadrlar tayyorlashdagi muvaffaqiyatini ko‘rsatadi. Bu mutaxassislar nafaqat O‘rtta Osiyo respublikalarida, balki Rossiya va boshqa mamlakatlarda ham arxeologiya fanining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Kafedraning metodologik yondashuvlari, xususan, “Masson maktabi”ning dalaviy tadqiqot usullari, arxeologiyada standart sifatida qabul qilingan usullar bugungi kunda ham zamonaviy arxeologik tadqiqotlarda qo’llanilmoqda, bu esa kafedraning merosining doimiy ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, kafedra faoliyati mahalliy aholi o‘rtasida arxeologik yodgorliklarni muhofaza qilish bo‘yicha targ‘ibot ishlarini olib borish orqali ijtimoiy mas’uliyatni ham o‘z zimmasiga oldi. Talabalar qonunchilik bilan tanishtirilgan va mahalliy jamoalar bilan hamkorlikda yodgorliklarni asrashga qaratilgan tadbirlar tashkil etgan.

Biroq, kafedraning faoliyatida bugungi kunda muayyan cheklovlar ham mavjud. Masalan, yirik ekspeditsiyalarning sezilarli kamayganligi, resurslarning cheklanganligi va infratuzilma muammolari dalaviy tadqiqotlarning kengayishiga ma’lum darajada to‘sinqinlik qildi. Shu bilan birga, O‘z MU Tarix fakulteti arxeologiya kafedrasи bu cheklovlarni tashkiliy mahorat, Respublika xalqaro miqyosdagi grandlar, universitet ichki imkoniyatlari va ilmiy innovatsiyalar orqali yengib o‘tmoxda. Bugungi kunda

kafedraning merosini zamonaviy texnologiyalar va tadqiqot usullari bilan boyitish imkoniyati mavjud, bu esa o‘tmishdagi topilmalarni yangi kontekstda qayta ko‘rib chiqishga yordam beradi.

Kelajakdagagi tadqiqotlar uchun yo‘nalishlar:

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish: Kafedra bitiruvchilarining xalqaro loyihalardagi ishtirokini chuqur o‘rganish orqali O‘rta Osiyo arxeologiyasining global integratsiyasini mustahkamlash.

Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash: Arxeologik topilmalarni radiokarbon tahlili, 3D modellashtirish va geofizik usullar kabi zamonaviy usullar bilan qayta tahlil qilish.

YUTAKE, KATE loyihasining ta’siri: Ushbu loyihalarning zamonaviy arxeologiyaga ta’sirini tahlil qilish va uning metodologik merosini yangi loyihalarda qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish.

Arxeologik yodgorliklarni raqamlashtirish: Kafedra arxivlari va topilmalarni raqamli platformalarda katalogglashtirish orqali ularni global ilmiy jamoatchilik uchun ochiq qilish.

Ta’lim dasturlarini modernizatsiya qilish: Kafedraning o‘quv dasturini zamonaviy arxeologik va ilmiy metodologiyalarga moslashtirish, masalan, bioarxeologiya va arxeogenetika kabi yangi yo‘nalishlarni kiritish.

Ushbu takliflar kafedraning ilmiy va ta’limdagi merosini yanada boyitishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, O‘rta Osiyo arxeologiyasi kafedrasini nafaqat mintaqaviy arxeologiya fanining rivojlanishiga muhim hissa qo‘shti, balki xalqaro miqyosda ham o‘ziga xos metodologik va ta’limiy modelni shakllantirdi. Uning faoliyati bugungi kunda ham arxeologik tadqiqotlar va kadrlar tayyorlashda muhim namuna sifatida qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirzayev K.M. O‘rta Osiyo arxeologiyasi kafedrasining paydo bo‘lishi zaruriyatları // Tarixiy tadqiqotlar. – Toshkent, №4, 2025. B.62
2. Массон М.Е. Среднеазиатская археологическая школа Таш ГУ // Археология Средней Азии. — Ташкент, 1966. Вып.295.-С.5-10,
3. Абдукаримохунова Р. Ташкентская археологическая школа и развитие археологии Средней Азии // кандидата исторических наук ... дисс. — Ленинград, 1989. – С.70, 72
4. О‘z MA sh/f. M.Ye. Masson., "Кафедра археологии Средней Азии САГУ 1940-1960 гг." 1960 у., R-2723-fond, 1-ro‘uxat, 1240-ish.b.1
5. Шамукарамова Ф. Михаил Евгеньевич Массон и археологическая школа Узбекистана // Информационно-библиотечный журнал «INFOLIB», №3, 2019. В.64-69
6. Пилипко В. Н. ОТЕЦ-ОСНОВАТЕЛЬ К 125-летию со дня рождения Михаила Евгеньевича Массона // Вестник МИЦАИ № 34/2022. С.121.

КАФЕДРА АРХЕОЛОГИИ СРЕДНЕЙ АЗИИ: УЧЕБНЫЙ ПРОЦЕСС, МЕТОДЫ ПОЛЕВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Аннотация. В данной статье рассматривается научная деятельность первой в Средней Азии специализированной археологической школы, основанной выдающимся археологом Михаилом Евгеньевичем Массоном. Научная статья посвящена анализу истории развития археологической науки на территории Средней Азии и ее современного состояния. Рассматриваются вопросы становления и развития кафедры археологии Средней Азии, а также учебные процессы и методы исследования, применяемые на кафедре.

Ключевые слова: Михаил Евгеньевич Массон, В.Н. Пилипко, СНАК, ЮТАКЭ, кафедра археологии Средней Азии, археология, практика, исследование, экспедиция, раскопки, древние города.

DEPARTMENT OF ARCHAEOLOGY OF CENTRAL ASIA: EDUCATIONAL PROCESS AND FIELD RESEARCH METHODS

Abstract. This article examines the scientific activities of the first specialized archaeological school in Central Asia, founded by the eminent archaeologist Mikhail Yevgenievich Masson. The scientific paper analyzes the history of archaeological science development in Central Asia and its current state. It explores the establishment and growth of the Department of Central Asian Archaeology, as well as the educational processes and research methods employed within the department.

Keywords: Mikhail Evgenievich Masson, V.N. Pilipko, TIAT, YuTAKE, Department of Central Asian Archaeology, archaeology, fieldwork, research, expedition, excavations, ancient cities.